XALQ DEPUTATLARI BUXORO TUMANI KENGASHINING QARORI

2021 - yil 30 - dekabr VI-47-62-2-32-K/21 Buxoro tuman hokimligi

Buxoro tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq, Buxoro tumani mahalliy budjetining 2022 yil uchun daromadlari 74 317,0 mln.so‘m, xarajatlari 147 529,6 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 73 212,6 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2021 yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

- 2022 yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

- Mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2022 yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdorlari 3-ilovaga;

- 2022 yil uchun tuman budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga; (*bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Buxoro tumani bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.)*

- 2022 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga;

- 2022 yil uchun tuman budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga*(bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.)* tasdiqlansin.

4. 2022 yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 378,6 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2022 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Buxoro tumani budjetining, tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

5. 2022 yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 052,0 mln. so‘mni hamda tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

6. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining tuman aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) tumanning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat

budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

xususiylashtirishdan tushgan tushumlar va boshqa soliqlar;

v) tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

7. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri (Sh.Karimov), Davlat soliq inspeksiyasi (S.Axmedov), tuman hokimligi mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

8. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

9. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (S.Axmedov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (R.Rustamov) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy

etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

10. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) hamda tuman hokimligii bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

11. Majburiy ijro byurosi Buxoro tuman bo‘limi (S.Sharapov) tuman davlat soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

12. Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash bo‘limi (Sh.Toshev), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi, Bo‘sh turgan ob’ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auksion» mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

14. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Buxoro viloyat hududiy bo‘linmasi, tuman davlat soliq inspeksiyasi (S.Axmedov), tuman moliya bo‘limi (Sh.Karimov) bilan birgalikda davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning 1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022 yilning 1

sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

15. Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi tuman hokimligi bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

16. Buxoro irrigatsiya tizimlari havza bo‘limi (R.Savriyev) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

(bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin).

17. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Atoyev), Tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi, Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi (Y.Murodov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

18. Davlat Moliyaviy nazorati Buxoro viloyat boshqarmasi, Xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va Sog‘liqni saqlash bo‘limlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

19. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

20. Tuman hokimligi:

- tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

- bunda, tuman xalq deputati, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi

huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

- mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21.Xalq deputatlari tumani Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli bo‘lim boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

22. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

23. Mazkur qaror “Gala Osiyo ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

25.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi raisi **Jurayev X. K.**

Халқ депутатлари Бухоро туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-47-62-2-32-K/21-сон қарорига
1-илова

Бухоро тумани маҳаллий бюджети даромадларининг
2022 йилдаги асосий прогноз кўрсаткичлари

минг сўмда

Т/Р	Даромад турлари	Жами
1	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	0,0
2	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи (ИТД)	1 067 000,0
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	10 914 400,0
4	Қўшилган қиймат солиғи	0,0
5	Акциз солиғи, жами	0,0
	шу жумладан:	0,0
	- бензин, дизел ёқилғиси ва газ реализациясидан солиқ	*0,0*
6	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	0,0
7	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	5 996 000,0
8	Айланмадан олинадиган солиқ	11 742 000,0
9	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	8 560 000,0
10	Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ (норуда материаллари)	125 000,0
11	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	4 307 000,0
12	Давлат божи	0,0
13	Жарималар	0,0
14	Ижара тўлови	216 000,0
15	Давлат ташкилотларининг соф фойдасидан даромад	0,0
16	Йиғимлар	3 948 000,0
	ЖАМИ	**46 875 400,0**
17	Мобиль алоқа хизмати ва алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво учун акциз солиғи тушумларидан тегишли равишда ўтказиб бериладиган даромад	**27 441 555,0**
-	Алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво	10 385 193,0
-	Мобиль алоқа хизмати	5 916 024,0
-	Тамаки маҳсулоти учун акциз солиғи	11 140 338,0
18	Тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар	**73 212 634,0**

ҲАММАСИ	**147 529 589,0**

Халқ депутатлари Бухоро туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-47-62-2-32-К/21-сон қарорига
2-илова

2022 йил учун Бухоро тумани маҳаллий бюджетидан ҳудудий бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган парламент ажратмаларининг чекланган миқдорлари

минг.сўмда

Т/р	Кўрсаткичлар	Миқдори
Бухоро тумани бўйича харажатлар миқдори, Жами		**147 529 589,0**
1	Мактабгача таълим бўлими	10 750 894,0
2	Халқ таълими бўлими	8 148 252,0
3	Тиббиёт бирлашмаси	56 680 711,0
4	Маданият бўлими	2 035 423,0
5	Болалар ва ўсмирлар спорт мактаби	2 107 326,0
6	Бандликка кўмаклашиш маркази	462 333,0
7	Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими	1 109 121,0
8	Ирригация бўлими	1 212 151,0
9	Қишлоқ хўжалиги бўлими	567 328,0
10	Туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши	658 711,0
11	Ободонлаштириш бошқармаси	11 799 410,0
12	Молия бўлими	900 651,0
13	Маҳалла фуқаролари йиғини	5 044 332,0
14	Ҳокимият	45 034 496,0
15	Халқ депутатлари Кенгаши котибяти	260 304,0
16	Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими	530 191,0
17	Ахборот ва оммавий коммуникациялар бўлими	227 955,0

Халқ депутатлари Бухоро туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-47-62-2-32-К/21-сон қарорига
3-илова

Бухоро туманида қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлар учун маҳаллалар кесимида белгиланган ставкалар

№	МФЙ номи	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлар учун юридик шахслардан олинадиган ер солиғи ставкаси		Жисмоний шахслар учун ер солиғи ставкаси	
		Коэффицент миқдори (0,7-3 гача)	Солиқ суммаси (1 гектар учун, сўмда)	Коэффицент миқдори (0,7-3 гача)	Солиқ суммаси (1 кв.м учун, сўмда)
1	"Дўстлик" МФЙ	1,05	30 474 368,5	1,05	276,0
2	"Галаосиё" МФЙ	1,05	30 474 368,5	1,05	276,0
3	"Мустакиллик" МФЙ	1,05	30 474 368,5	1,05	276,0
4	"Наврўз" МФЙ	1,05	30 474 368,5	1,05	276,0
5	"Ойбек" МФЙ	1,05	30 474 368,5	1,05	276,0
6	"Сохибкор" МФЙ	0,98	28 442 744,0	0,98	257,6
7	"Қавола-Махмуд" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
8	"Янги-турмуш" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
9	"Гулшанобод" МФЙ	1,02	29 603 672,3	1,02	268,1
10	"Работиқалмок" МФЙ	1,02	29 603 672,3	1,02	268,1
11	"Кунжи-калъа" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
12	"Шергирон" МФЙ	1,02	29 603 672,3	1,02	268,1
13	"Суфикоргар" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
14	"Янги-обод" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
15	"Саховат" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
16	"Истиқбол" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
17	"Кўчкўмар" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
18	"Шехонча" МФЙ	1,02	29 603 672,3	1,02	268,1
19	"Боғикалон" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
20	"Работак" МФЙ	1,02	29 603 672,3	1,02	268,1
21	"Туркон " МФЙ	0,98	28 442 744,0	0,98	257,6
22	"Хонабод" МФЙ	1,02	29 603 672,3	1,02	268,1
23	"Работипоён" МФЙ	1,02	29 603 672,3	1,02	268,1
24	"Хумин" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
25	"Талалиён" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
26	"Дехча" МФЙ	1,02	29 603 672,3	1,02	268,1
27	"Арабхона" МФЙ	0,98	28 442 744,0	0,98	257,6
28	"Новметан" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
29	"Қўшқодим" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
30	"Кулонхона" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
31	"Подшохи" МФЙ	0,98	28 442 744,0	0,98	257,6
32	"Боғдашт" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
33	"Зарманок" МФЙ	1,02	29 603 672,3	1,02	268,1

34	"Амробод-Гулистон" МФЙ	0,98	28 442 744,0	0,98	257,6
35	"Маданият-Работ" МФЙ	1,00	29 023 208,1	1,00	262,8
36	"Дилобод-Зафаробод" МФЙ	0,98	28 442 744,0	0,98	257,6

Халқ депутатлари Бухоро туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-47-62-2-32-K/21-сон қарорига
4-илова

Умумдавлат солиқларидан Бухоро тумани маҳаллий бюджетига 2022 йилдаги ажратмалари меъёрлари

фоиз ҳисобида

Т/Р	Шахар ва туманлар номи	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	Айланмадан олинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Юридик шахслар ер солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи
1	Бухоро тумани	0	100	0	100	100	100	100	100	100

Т/Р	Шахар ва туманлар номи	Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ (норуда материаллари)	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	Давлат божи	Жарималар	Йиғимлар	Давлат унитар корхоналарининг соф фойдасидан ажратма	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари
1	Бухоро тумани	100	100	0	0	100	0	100

Халқ депутатлари Бухоро туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-47-62-2-32-K/21-сон қарорига
5-илова

Бухоро тумани маҳаллий бюджетининг 2022 йил даромадлари ва харажатлариинг чегаравий ҳажми

минг сўмда

Бюджетлар номи	Даромад *	Харажат
Бухоро тумани	74 316 955,0	147 529 589,0

** мобил алоқа хизматлари учун акциз солиғи ва алкоголь махсулотлари, шу жумладан пиво учун акциз солиғидан тушумлар бўйича ўтказиб бериладиган даромадлар билан биргаликда.*

Халқ депутатлари Бухоро туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-47-62-2-32-K/21-сон қарорига
6-илова

Бухоро тумани маҳаллий бюджетининг 2022 йилги юқори бюджетдан ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

минг сўмда

Шаҳар ва туманлар	**Тартибга солувчи трансферт миқдори**
Бухоро тумани	73 212 634,0

Халқ депутатлари Бухоро туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-47-62-2-32-K/21-сон қарорига
7-илова

Бухоро тумани маҳаллий бюджетида 2022 йилда йўл қўйиладиган энг кам маблағлар миқдори

минг сўмда

Т/рҲудуд номи	Миқдор
1 Бухоро тумани	1 052 000,0